

ТОМЧИЛАБ СУГ'ORISHDA CHIGIT UNISHINI SAMARADORLIGI

Xolbekov Toshturdi Qudratovich

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va
mexanizatsiya kafedrası o'qituvchisi*

Amonov Chori Eshkuvatovich

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va
mexanizatsiya kafedrası o'qituvchisi*

Hozirgi yurtimizda qishloq xo'aligi sanoatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, dehqonchilik, paxtachilik sohalari eng dolzarb sohalardan hisoblanmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, keyingi yillarda dunyo aholisi soni ikki barobar oshadi. Ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun qo'shimcha ravishda 1,5 milliard tonna don, 200 million tonnadan oshiq chorva mahsulotlari yetishtirishga talab paydo bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, yangi yerlar o'zlashtirilib, dehqonchilik qilinadigan hududlar maydoni keskin ko'payadi. Bundan ham muhimi dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan suv tanqisligini yanada oshiradi. Shu ma'noda aytish joizki, endilikda suv xo'jaligida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini yanada jadallashtirish, tizimga tejamkor texnologiyalarni izchil tatbiq etish davr talabini taqozo qilmoqda.

Shundan kelib chiqqan holda qarasaq, mamlakatimizda bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda ya'ni zamonaviy usulda yaratilgan texnologiyalar orqali qishloq va suv xo'jaligini rivojlantirishda foydalanish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga quyidagi qabul qilingan qarorlar misol bo'la oladi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham kiritilgan. Ya'ni iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish ustuvor yo'nalishining 3.3 Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish haqidagi qismida alohida yoritib berilgan [1].

Hozirgi kunda qishloq xo'jalik mahsulotlarini tomchilab sug'orish hozirgi kundagi eng ahamiyatga ega bo'lgan mavzu hisoblanadi. Tomchilatib sug'orish ham arzon ham qulay bo'lgan usul hisoblanmoqda. Sug'orish usuli, bu sug'orish suvini sug'oriladigan maydonlarga taqsimlash va suvni oqim shaklidan tuproq va atmosfera namligiga o'tkazish uchun qo'llaniladigan usullar va tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Sug'orish usulini amalga oshirish uchun sug'orish texnika elementlari tanlab olinadi.

Sug'orish texnikasi - suvni oqim shaklidan tuproq va atmosfera namligiga o'tkazish texnologiyasi, xamda texnik vositalardir.

Sug'orish usullarining asosiy mohiyati bu suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish maqsadida maqbul sug'orish usuli qo'llash natijasida o'simlik uchun maqbul bo'lgan tuproq namligini yaratish, hamda yuqori va barqaror xosil olish. Sug'orish usuli, turi sug'orish tartibiga, sug'orishda mehnat unumdorligiga, yerning meliorativ holatiga tekislash ishlariga, suv tarmoqlari joylashishiga, konstruksiyasiga, qurilish va ekspluatatsiya harajatlariga, mahsulot unumdorligiga va boshqalarga ta'sir qiladi. Uning turini to'g'ri tanlash qishloq xo'jalik ekinlari hosilini va mahsuldorligini belgilaydi.

Bugungi kunda zamonaviy sug'orish usullari ichida ajralib turadigan sug'orish usuli bu tomchilab sug'orish usuli bo'lib hisoblanadi. Bu sug'orish usulida suv tuproqqa emas balki o'simlikning ildiz qismiga beriladi bu esa ekinga beriladigan suv sarfini kamayishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga ekinlardan olinadigan hosilni ortishiga xizmat qiladi. Ta'kidlab o'tish joizki, tomchilatib sug'orish texnologiyalarining afzallik jihati faqat suvni tejashda emas. Sug'orishning bunday usuli yerning meliorativ holatini yaxshilash, hosildorlik yuqori bo'lishiga erishishda ham samarador bo'lib hisoblanadi. Masalan, ekin maydonlarini tomchilatib sug'organda suv har bir ekinning ma'lum davrdagi ehtiyojiga mos ravishda dala bo'ylab bir tekisda taqsimlanadi. Natijada tuproqning namligi bir xil me'yorda bo'lishi ta'minlanadi. O'g'it suv bilan berilganligi bois o'g'itlash uchun texnika ishlatishning zarurati qolmaydi. Shuningdek, bunday usulda berilgan oziq moddalarning ekinga o'zlashtirilish ko'rsatkichi yuqori bo'ladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, tomchilatib sug'orilgan bog' va tokzorlarda hosildorlik 45 foizga, paxta va sabzavot paykallarida esa 65 foizgacha ortishi amalda isbotlangan.

Mamlakatimiz miqyosida suvni tejaydigan ilg'or texnologiyalarni, jumladan tomchilatib sug'orish, egatga plyonka to'shab hamda o'q ariqlar o'rniga egiluvchan ko'chma quvurlar yordamida sug'orishni keng joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. Faqatgina oxirgi yillarning o'zida 7,6 ming gektardan ortiq maydonda, tomchilatib sug'orish tizimi qurilib, muvaffaqiyatli tarzda ishlatilmoqda. Egatga plyonka to'shab va ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish texnologiyasi 4 ming gektarga yaqin maydonda qo'llanilib, uning asosiy qismi paxta maydonlarini sug'orishda ishlatilmoqda. Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirishda suvni tejaydigan ilg'or texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egaligini hisobga olib, davlatimiz tomonidan ushbu yo'nalishni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan,

Tomchilatib sug'orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug'orish texnologiyalarini joriy etgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga tejalgan suv resurslaridan boshqoli don ekinlaridan bo'shagan maydonlarda qishloq xo'jaligi

ekinlarini o'stirishda foydalanish huquqi beriladi; Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tomchilatib sug'orish tizimi va suvni tejaydigan boshqa sug'orish texnologiyalari uchun butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan tashkilotlarga deklaratsiya qilingan narxlarda granula xarid qilish uchun har yillik kvotalar ajratiladi. Suvni tejaydigan sug'orish texnologiyasini joriy qilgan yuridik shaxslarga beriladigan imtiyozlar. Respublika miqyosida suvni tejaydigan ilg'or texnologiyalarni, jumladan tomchilatib sug'orish, egatga plyonka to'shab hamda o'q ariqlar o'rniga egiluvchan ko'chma quvurlar yordamida sug'orishni keng joriy etishga alohida e'tibor berilmoqda. So'nggi yillarda 8,0 ming gektarga yaqin maydonda "Sug'oriladigan yerlar meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi" tomonidan ajratilayotgan mablag'larning 5 % igacha qismini tomchilatib sug'orish tizimlarini joriy qilayotgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga tijorat banklari orqali yillik 6 % li imtiyozli kredit sifatida ajratish.

Tomchilab sug'orishda tuproqqa suv singishi turlicha va yuzasi o'ta notekis bo'lgan yer maydonlarini sug'orish imkoniyati yaratiladi, tomchilatib sug'orish tizimi jo'yaklarda joylashadi va tuproqni ko'chirmasdan sug'orish imkonini beradi.

Qator oralarida tuproq butun mavsum mobaynida quruq bo'lib, agrotexnik tadbirlarni bajarishda texnika va odamlar harakatlanishi uchun qulay bo'ladi. Begona o'tlar miqdori kam bo'ladi, suv o'simlikning ildiz tizimiga yetkazib berilayotgani sababli atrofdagi yerlar sug'orilmaydi g'o'zani ildizi yaxshi rivojlanadi va ko'plab faol ildiz tukchalari hosil bo'ladi, suv bilan ozuqa moddalarni iste'mol qilish jadalligi oshadi.